



**POLITICAL PARTY AS AN IMPORTANT INSTITUTION OF THE  
POLITICAL SYSTEM**

**Khushkeldiyev Otabek Baxodirovich**

**Master's Student, Termiz University of Economics and Service**

**Abstract**

This article examines the concept of a political party and highlights the historical stages of its formation and development up to the level of becoming an integral component of the state's political system.

**Key words**

political party, political system, Indian National Congress, political organization, local government authorities, public administration.

**SIYOSIY PARTIYA – SIYOSIY TIZIMNING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA  
TASHKIL TOPISHI**

**Xushkeldiyev Otabek Baxodirovich**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siyosiy partiya tushunchasi va davlatning siyosiy tizimi darajasiga qadar shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixi yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Siyosiy-partiya, siyosiy tizimi, Hindiston Milliy Kongressi, siyosiy tashkilot, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi.

**KIRISH**

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, XIX asr oʻrtalaridan boshlab Yevropa va Amerika Qoʻshma Shtatlarida shakllana boshlagan hozirgi zamonaviy siyosiy uyushmalar va siyosiy partiyalar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy, shu bilan birga, demokratik institut boʻlib kelmoqda. Siyosiy partiyalarning paydo boʻlishi va jahon ijtimoiy-siyosiy tizimida oʻziga xos oʻrin tutishi, shubhasiz, demokratiyaning yuksak tantanasidir. Jahon





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

ijtimoiy-siyosiy hayotida partiyalar shakllanishining o'ziga xos umumiy omillari mavjud bo'lib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish joiz:

– birinchidan, jamiyat ijtimoiy tuzilishining murakkablashuvi hamda ijtimoiy ziddiyat va qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi aholining turli xil qatlamlarini siyosiy hayotga jalb qildi;

– ikkinchidan, siyosiy hayotning markazi sifatidagi vakillik organlari rolining o'sishi monarxlar hokimiyatining cheklanishi, hokimiyatlar taqsimlanishining paydo bo'lishi hamda bu haqdagi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi;

– uchinchidan, muayyan holda shakllangan g'oyalarning paydo bo'lishiga ma'lum hududlarning iqtisodiy jihatdan shiddat bilan rivojlanishi va o'z manfaatlarining shakllanishi hamda bu bilan bog'liq ravishda aholining ayrim toifalari maqsad va intilishlarining vujudga kelishi turtki bo'ldi;

– to'rtinchidan, aloqa vositalarining texnik jihatdan taraqqiy etishi, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining shakllanishi partiyalar faoliyatining prinsipial jihatdan yangi darajadagi imkoniyatlarini yaratgan axborot inqiloblariga olib keldi.

Bu ro'yxatni alohida olingan davlatlar misolida yanada kengaytirish mumkin. Masalan, Hindistonda 1885-yilda tashkil etilgan "Hindiston Milliy Kongressi" (Indirlar) partiyasi ko'proq milliy ozodlik harakati sifatida shakllangan va hind xalqining deyarli barcha tabaqalari qiziqishlarini o'zida aks ettirgan.

"Partiya" so'zini etimologik ko'rib o'tar ekanmiz, bu ibora lotin tilida "Pars", yani "qism" ma'nosini anglatadi. Siyosiy partiyaga ko'pgina tariflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda ma'lum bir ijtimoiy qismning eng faol, ongli va uyushqoq qismi tushuniladi deyilgan bo'lsa, Bizning Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunimizda siyosiy partiyaga shunday tarif berilgan: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga





# JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir degan tarif bilan muomlaga kiritilgan. Partiya atamasiga umumiylik va tarix ko‘zguisi bilan qararak, bu atamaning kelib chiqishi dastlab, ilk bor siyosiy tushuncha sifatida 18-asrda G.Bolingbork tomonidan qo‘llanilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Shu o‘rinda siyosiy partiyaning siyosiy tizim asosida tashkil etilishi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tsak, siyosiy tizim va unda siyosiy partiyalar ishtiroki bo‘yicha bir qancha tarixchi va huquqshunos olimlar faoliyat yuritgan. Jumladan, V. Kross, R.Akland, R.Gibson, V.Rendall, V.Zimin. Tarixdan ma‘lumki, siyosiy tizim tushunchasi bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona to‘xtam mavjud emasligiga guvohi bo‘lamiz. Xususan huquqshunos, tarixchi olim H.T.Odilqorayev Siyosiy tizim – Xalq irodasiga muvofiq, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar) siyosiy normalar, institutlar, jarrayonlarning o‘zaro aloqadorligi va yig‘indisi deb tariflaydi”.<sup>1</sup> Partiya to‘g‘risida yana bir qancha olimlar D.Defo, J.Svift, Ch. Chesterfild va boshqa mualliflarni asarlarida uchratishimiz mumkin.

## **NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida siyosiy partiyalarga doir qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ularda siyosiy partiyalarni to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratilgan. Bu huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan prinsiplari doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demakratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat

<sup>1</sup> H.T.Odilqorayev. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T. 2002. B.12.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

tashkilotlar to‘g‘risida”gi va shu sohaga bevosita aloqador o‘nlab normativ-xuquqiy xujjatlarda aksini topgan.<sup>2</sup>

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy tizimining muhim ajralmas qismidir. Davlat va huquq nazariyasidan bizga ma’lumki, siyosiy tizim – bu xalq irodasiga muvofiq davlatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy institutlar, siyosiy normalar, prinsplar, jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va mushtarak yig‘indisi. Ramziy ma’noda aytganda, siyosiy tizim davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi siyosiy muassasalar yoki tashkilotlarning harakatlanish maydonidir, ushbu siyosiy maydonning barqarorligini mustahkamlovchi siyosiy poydevor – siyosiy partiyalardir. Zero, siyosiy partiyalar hokimiyat konstitutsiyaviy-huquqiy tuzilishining barcha bo‘g‘inlariga singib ketgan holda nafaqat uni shakllantirishda, balki faoliyat yuritishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydilar. Siyosiy partiyalarning mohiyati ular faoliyatining ikki taraflama xususiyatga egaligi bilan bog‘liq. Bu partiyaning jamiyatning muayyan qismi (partiya a‘zolari, partiya tarafdorlari) manfaatlarini ifodalashi va hokimiyat munosabatlari tizimida tashkilot sifatida kirishishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda birtomondan, jamiyatning ma’lum qismi manfaatlarini ifodalovchi vakillik instituti sifatida partiya a‘zolari, tarafdorlari, saylovchilarning siyosiy irodasini ifoda etsa, ikkinchi tomondan esa, siyosiy partiyalar davlat siyosiy tizimining zarur unsurlaridan biri sifatida hokimiyat organlarining faoliyat ko‘rsatishiga ko‘maklashadi, saylovlarda tashkiliy ravishda ishtirok etadi, shuningdek, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan boshqa siyosiy aksiyalarda qatnashadi.<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar maqomini tartibga soluvchi, ularning davlat hokimiyati organlariga bo‘ladigan saylovlarda o‘z nomzodlarini ilgari surish huquqini mustahkamlovchi va siyosiy

<sup>2</sup> “Saylov va siyosiy partiyalar” T, TDYuI. 2004-y., “Siyosiy partiyalar va jamiyatni demakratlashtirish.”T.:TDYuI nashriyoti, 2009. 31-bet.

<sup>3</sup> Саидова Л. Особенности избирательной системы Узбекистана и возрастающая роль политических партий в этой системе // Материалы рабочего семинара-совещания окружных избирательных комиссии по выборам Президента Республики Узбекистан и в Олий Мажлис Республика Узбекистан. - Т.: Узбекистан. С.35





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

partiyalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘rinishlari belgilangan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi mamlakat saylov qonunchiligini rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning rolini oshirish maqsadida 2004-yilning 30-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. “Mamlakatni modernizatsiyalash hamda davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi O‘zbekistonda ko‘p partiyaviylik tizimini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi.<sup>4</sup>

### **MUHOKAMA**

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi va ular faoliyati huquqiy asoslarining rivojlanish tarixini mamlakatimiz olimlari turli xil davrlarga bo‘lib tahlil qilib chiqishgan. Xususan, mamlakatimizda, siyosiy partiyalarimizning shakllanishi va ularning faoliyatining rivojlanishini Q.Jo‘rayev<sup>5</sup> hamda Sh.fayziyev<sup>6</sup> bu jarayonlarni ikki bosqichga bo‘lib o‘rgangan. Ayrim olimlar uch bosqichga bo‘lib o‘rgangan.<sup>7</sup>V.Dubkov<sup>8</sup>, Sh.Yakubov<sup>9</sup> va O.Yangibayev<sup>10</sup>lar mamlakatimizda siyosiy partiyalarning shakllanishi va rivojlanishini to‘rt bosqichga bo‘lib talqin etishgan. Tadqiqotchi N.S.Rasulova O‘zbekistonda partiyalarning shakllanishi va rivojlanishini besh bosqichga ajratgan.

Birinchi bosqich 1991-1994, ikkinchi bosqich 1995-1999, uchinchi bosqich 2000-2004,

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. №2. 36-b. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004. №5. 86-b. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari to‘plami, 2007. №15. 152-b.

<sup>5</sup> Q.Jo‘rayev. Rivojlangan davlatlarda ko‘ppartiyaviylikni shakllanishi-demokratik taraqqiyotining muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida) Siyosiy fanlar nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 1999. B-86-87.

<sup>6</sup> Sh.fayziyev. Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida. Toshkent. 2009. 4-7 betlar.

<sup>7</sup> O.O‘sarov. O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalari. Toshkent. 2014. B. 16-18.

<sup>8</sup> В.Дубков. Многопартийность как институт формирующегося в Узбекистане гражданского общества// общественное мнение. Права человека. Ташкент. 2004. №1. – С-90.

<sup>9</sup> Sh.Yakubov. Siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish omillari// Inson huquqlari va gumaniitar huquq: Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2009. – B. 17-18.

<sup>10</sup> O.Yangibayev. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda ishtirok etish. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar akademiyasi. 2019. – B.36.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

to‘rtinchi bosqich 2005-2007 va beshinchi bosqich 2007-2021-yillarni o‘z ichiga olgan.<sup>11</sup> A. Raximov mazkur jarayonni olti bosqichga bo‘lgan.

Yuqoridagi Siyosiy partiyalar shakllanishi va rivojlanish faoliyati tarixini bosqichlarini yaqin yillarda tadqiq qilib Bekov Ixtiyor Rustmovich to‘rt bosqichga bo‘lib ularni ilmiy asoslab berdi. Ushbu bosqichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Jumladan:

**Birinchi bosqich** 1991-1995-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ushbu bosqichda partiyalarning ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tishning huquqiy poydevorlari barpo etilganligi qayd etilgan.

**Ikkinchi bosqich** 1996-2006-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘n yillik tarixni o‘z ichiga olgan bo‘lib, mazkur bosqichning boshlanishi 1996-yil 26-dekabrda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida<sup>12</sup>”gi qonun qabul qilinishi bilan boshlangan. Mazkur bosqichning yana bir mezonlaridan 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida<sup>13</sup>”gi qonuni alohida ahamiyatli sanaladi.

**Uchinchi bosqich** 2007-yildan 2016-yilga qadar bo‘lib, “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, boshqaruvni takomillashtirish Jamiyatni yanada demokratlashtirish, hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida<sup>14</sup>”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishidir.<sup>15</sup>

**To‘rtinchi bosqich** 2017-yildan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha

<sup>11</sup> N.S.Rasulova. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi: muammo va yechimlar. (1991-2008 yillar) tarix fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2010. – 13.B.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.12.1996 yildagi 337-I-son.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 21-son, 248-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, 11.04.2007 yildagi O‘RQ-88-son.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2007 yildagi O‘RQ-90-son.





# JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-6, 2026

Oliy Majlis va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish<sup>16</sup> bandida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi ham bu sohada katta islohot sanaladi. Shu o'rinda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek: "Harakatlar strategiyasi va uning asosida qabul qilingan davlat dasturi ijrosini ta'minlashda siyosiy partiyalar, Oliy Majlis palatalari o'z elektorati manfaatlari, saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar, vakolatlaridan kelib chiqib, o'z g'oya va takliflari bilan faol qatnashishi lozim. Ayniqsa partiyalar bundan manfaatdor, chunki Harakatlar strategiyasini bosqichma-bosqich, sifatli amalga oshirishni ta'minlash orqali ular ham o'z dasturiy vazifalarini amalda bajarishga erishadi"<sup>17</sup>.

## XULOSA

Xulosa o'rnida davlat va siyosiy partiyalar o'zaro munosabatlarining asosiy yo'nalishlari ular faoliyatini normativ tartibga solish, davlat va jamoatchilik nazorati, davlat va siyosiy partiyalarning masalalarni bahamjihat hal qilish bo'yicha o'zaro hamkorligi, siyosiy partiyalar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda Xalq Demokratik partiyasi, "Adolat" sotsialdemokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston ekologik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida amalga oshiradilar. Shu boisdan, siyosiy partiyalar qonun asosida tashkil etilishi va faoliyat olib borishi, bir maqsadli shaxslarni birlashtirishi, muayyan dasturi va yo'nalishiga ega bo'lishi, boshqa jamoat tashkilotlari orasida o'zining rasmiyligi va muhimligi bilan ajralib turishini ta'kidlab o'tish joizdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

<sup>16</sup> <https://lex.uz/docs/-3107036>.

<sup>17</sup> Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. Uz.A12.07.2017.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

1. H.T.Odilqorayev. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T. 2002. B.12.
2. “Saylov va siyosiy partiyalar” T, TDYuI. 2004-y., “Siyosiy partiyalar va jamiyatni demakratlashtirish.”T.:TDYuI nashriyoti, 2009. 31-bet.
3. Saidova L. Osobennosti izberatelnoy sistemy Uzbekistana i vozrastayushaya rol politicheskix partii v etoy sisteme // Materialy rabocheho seminara-sovещaniya okrujnyx izbiratelnyx komissii no vyboram Prezidenta Respubliki Uzbekistan i v Oliy Majlis Respubliki Uzbekistan. - T.: Uzbekistan. S.35
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. №2. 36-b.  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004. №5. 86-b.  
O‘zbekiston Respublikasining qonunlari to‘plami, 2007. №15. 152-b.
5. Q.Jo‘rayev. Rivojlangan davlatlarda ko‘ppartiyaviylikni shakllanishi-demokratik taraqqiyotining muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida) Siyosiy fanlar nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 1999. B-86-87.
6. Sh.fayziyev. Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida. Toshkent. 2009. 4-7 betlar.
7. O.O‘sarov. O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalari. Toshkent. 2014. B. 16-18.
8. V.Dubkov. Mnogopartynost kak institut formiruyushegosya v Uzbekistane grajdaskogo obshestva// obshestvennoe mnenie. Prava cheloveka. Tashkent. 2004. №1. – S-90.
9. Sh.Yakubov. Siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish omillari// Inson huquqlari va gumanitar huquq: Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2009. – B. 17-18.
10. O.Yangibayev. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda ishtirok etish. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar akademiyasi. 2019. – B.36.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

11. N.S.Rasulova. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi: muammo va yechimlar. (1991-2008 yillar) tarix fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2010. – 13.B.
12. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.12.1996 yildagi 337-I-son.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 21-son, 248-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son.
14. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, 11.04.2007 yildagi O‘RQ-88-son.
15. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2007 yildagi O‘RQ-90-son.
16. <https://lex.uz/docs/-3107036>.
17. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak. Uz.A12.07.2017.

